



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHEYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 21 - iyun

185-14-220-Q/23

Yangiheyot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 19-iyundagi 382-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

Yangiheyot tumanida ichki bozorni bug'doy va un mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash hamda ularning narxlari barqarorligini saqlash va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2023-yil hosildan bug'doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyundagi 227-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 19-iyundagi 382-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2023-yil hosildan bug'doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyundagi 227-son qarori ijrosi haqida" 2023-yil 19-iyundagi 382-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (X.Tashpulatov), Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi (A.Qadirov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Maxmudov), tuman Soliq inspeksiyasi (A.Ibragimov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlarining, birinchi navbatda, qolipli non ishlab chiqaruvchi va un mahsulotlarining chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning mahalliy un mahsuloti bo'yicha o'tkaziladigan birja savdolarida ishtirok etishiga ko'maklashsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Yangiheyot tumani hokimi



X.Inogamov